ALISHER NAVOIY IJODIGA ISMOIL GASPRINSKIYNING MUNOSABATI

ОТНОШЕНИЕ ИСМАИЛА ГАСПРИНСКОГО К ТВОРЧЕСТВУ АЛИШЕРА НАВОЯ

Xaydarova Dilorom Abduxamidovna,
Qo ʻqon davlat universiteti katta oʻqituvchisi (PhD)
xaydarovad2112@gmail.com

Annotatsiya. XIX asrning soʻngi choragida shakllana boshlagan jadidchilik qisqa muddatda Chor Rossiyasi qoʻl ostida qolgan turk xalqlarining istiqlolga eltuvchi harakatga aylanib ulgurdi. Ayni shu davrda milliy adabiyot yangi bosqichga koʻtarildi va tarixga jadid adabiyoti nomi bilan kirdi. Jadidchilik harakatining asoschi Ismoil Gasprinskiy umumturkiy adabiy til haqida yozar ekan Alisher Navoiy ijodiga juda katta ahamiyat qaratadi. Mutafakkirning asarlarini chop qiladi va “Tarjimon” gazetasi oʻquvchilariga hadya qiladi. Ushbu maqolada Gasprinskiyning Alisher Navoiy ijodi va shaxsiya boʻlgan munosabati birlamchi manbalar asosda tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: jadidchilik, Ismoil Gasprinskiy, Alisher Navoiy, adabiyot, adabiy til.

Abstract. Jadidism, which began to take shape in the last quarter of the 19th century, quickly turned into a movement leading to the independence of the Turkic peoples under Tsarist Russia. During this period, national literature reached a new level and entered history under the name of Jadid literature. Ismail Gasprinsky, the founder of the Jadidism movement, while writing about the pan-Turkic literary language, attached great importance to the work of Alisher Navoi. He published the thinker's works and presented them to the readers of the newspaper "Tarjimon". This article analyzes Gasprinsky's attitude to Alisher Navoi's work and personality based on primary sources.

Keywords: Jadidism, Ismail Gasprinsky, Alisher Navoi, literature, literary language

Gasprinskiy oʻzining ilmiy va publitsistik faoliyatida Alisher Navoiyni buyuk mutafakkir va shoir sifatida tilga olgan. U Navoiy she’riyatining goʻzalligini va uning turkiy xalqlarga ta’sirini yuqori baholagan. Oʻzbekiston yangi tarixida XIX asrning soʻnggi choragida maydonga kelgan va tarixga “jadidchilik”, “milliy uygʻonish davri”, adabiyot tarixiga esa “jadid adabiyoti”, “milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti” nomi bilan kirgan siyosiy-ijtimoiy va adabiy-madaniy harakatining asos nuqtalaridan biri, bu turkiy tilda soʻzlashuvchi millatlar uchun yagona adabiy til yaratish boʻlgan edi. Ushbu gʻoyaning asosiy targʻibotchisi, yuqorida tilga olingan jadidchilik harakatining tamal toshini qoʻygan shaxslardan biri, qrimlik Ismoil Gasprinskiy edi. Ismoil

Gasprinskiy (1851–1914) – turkiy xalqlar ma’rifati va uyg‘onish harakatining yirik vakillaridan biri hisoblanadi. U o‘z asarlari va faoliyati orqali turkiy xalqlarning birligi, ma’rifati va taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan. Ismoil Gasprinskiy turkiy xalqlarning yagona adabiy tilga ega bo‘lishini orzu qilgan. U Navoiyga murojaat qilib, uning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida ilgari surilgan fikrlarini davom ettirgan. Navoiy bu asarida turkiy tilning arab va fors tillaridan kam emasligini isbotlashga harakat qilgan. Gasprinskiy ham shu g‘oyani ilgari surib, turkiy xalqlarni o‘z ona tilida savodli bo‘lishga chorlagan. Uning fikrlari va qarashlari Alisher Navoiy merosi bilan hamohang bo‘lib, bu ikki siymoning g‘oyalari o‘zaro bog‘liqdir. Ismoil Gasprinskiy yagona umumadabiy til yaratishga “Tarjimon” gazetasiga asos solgan 1883-yildan qattiq kurashdi va ma’lum natijalarga erishganligini o‘sha davrda yaratilgan turli adabiy-badiiy manbalar ko‘rsatib turibdi. Gasprinskiyning turkistonlik izdoshlari ham “Tarjimon” gazetasi “tili”da yozishga harakat qildilar va bu “til”da talaygina asarlar ham yaratdilar. Gasprinskiy umumadabiy turkiy tilni targ‘ib qilar ekan, eng avvalida turkiy tilning asoschisi hisoblanmish Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodiga juda katta qiziqish bilan qaradi. U Navoiyni “turk olamining eng buyuk bir shoiri, eng buyuk bir adibi” [1, Mir Alisher Navoiy. Mukolamatu-l-lug‘atayn 2-b.] hisoblaydi. Shu bilan bir qatorda Turkistonda keng yoyilgan, Gasprinskiyning so‘zlari bilan aytadigan bo‘lsak, turkiy tilning “chig‘atoy shevasi”ni aynan Alisher Navoiy qayta tiriltirgan. [2, Mir Alisher Navoiy Maktab (“Tarjimon” gazetasiga ilova), 48-son 1898-yil.] Gasprinskiy ushbu “chig‘atoy shevasi”da so‘zlashuvchi turkistonliklarning “adabiy” tili va adabiyoti, ayrim rus tadqiqotchilarining nazdida, biror “ilmiy” ma’lumot berish uchun yaramasligi haqidagi puch fikrlariga qarshi qat’iy fikr bilan kurashgan. Shu ma’noda Gasprinskiyning “Turkestanskie Vedomosti” gazetasining 1900-yilgi sonlaridan birida chop etilgan noma’lum muallifining mahalliy millat adabiyotiga oid maqolasiga bergan javobi diqqatga sazovor. Noma’lum muallif “sartlar” tili va adabiyoti haqida fikr yuritib, u haqda o‘ta salbiy va noma’qul xulosa bergan edi. Unga ko‘ra, turli foydali ma'lumotlar va ilmiy asarlarni “sart” tiliga tarjima qilishga xojat yo‘q, bunday tarjimalar foydadan ko‘ra ko‘proq ziyon keltiradi; “sart” tili o‘ta sodda, unda turli terminlarni ifoda etish imkoniyati yo‘qligi sabab ilmiy va adabiy tarjimaga yaroqli emas. Gasprinskiy ruslarning bu kabi fikrlariga munosabat bildirar ekan, noma'lum muallif fikr yuritgan “sart” tili chig‘atoy turkiysining mahalliy shevasi ekanligi, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa turkistonlik adiblarning yaratgan o‘lmas asarlari “sart” tilining allaqachon adabiy til sifatida shakllanib bo‘lgani hamda “sart” tili boshqa “taraqqiy” etgan millatlar tili kabi keng tarqalmagan bo‘lsa-da, mahalliy aholiga mo‘ljallangan turli ma'lumot beruvchi ilmiy asarlar uchun yetarli darajada yaroqli” ekanligini isbot qilib berdi. [3, Adabiyoti sartiya Tarjimon, 48-son 1900-yil]. Gasprinskiyning Navoiy asos solgan turkiy til borasidagi fikrlariga yana bir misol. 1911- yilning boshlarida Rossiya Davlat Dumasi turli mintaqalarda tashkil etilgan rus-

tuzem maktablarida olib boriladigan ta’limning tili borasida farmoyish qabul qildi. Ushbu Farmoyishga muvofiq “Turkistonda mahalliy adabiy til mavjud bo‘lmagani bois rus-tuzem maktablarida barcha darslar to‘liq rus tilida olib borilishi kerak” edi. Maktab ta'limi bilan bog‘liq bu muhim Farmoyish o‘sha davrdagi barcha gazetalarning asosiy muhokama mavzusiga aylandi. Xususan “Tarjimon”ning ham. Gasprinskiy Farmoyishni tanqid qilar ekan, Turkistonda joriy muomalada bo‘lgan va keng tarqalgan “chig‘atoy” tili turkiy xalqlarning eng qadimgi tillaridan biri ekanligini ko‘rsatishga tirishdi va “ilmning barcha sohalari bo‘yicha o‘nlab buyuk olimlarni yetishtirgan xalq qanday qilib adabiy tilga ega bo‘lmasligi mumkin”, degan savolni o‘rtaga tashlaydi. Gasprinskiy ushbu savolga yana o‘zi javob berish barobarida Alisher Navoiyning “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asarini misol tariqasida keltiradi va ushbu asarda turkiy til adabiy til sifatida fors tilidan, hatto ayrim o‘rinlarda, ustun kelishi isbot etilganligini ko‘rsatib berdi [4, Mir Alisher Navoiy Maktab (“Tarjimon” gazetasiga ilova), 48-son 1898-yil]. Shu bilan bir qatorda Gasprinskiy Navoiy qalamiga mansub asarlarni nashrdan chiqardi va ularni o‘zi targ‘ib qilan umumturkiy adabiy tilga o‘girgan shaklda o‘quvchilarga taqdim qildi. Gasprinskiy nashr qilgan asarlardan biri Alisher Navoiyning “Muhokamatu-l-lug‘atayn” (Ikki til muhokamasi) risolasidir. Noshir ushbu asarni “Mukolamatu-l-lug‘atayn” (Ikki til suhbati) nomi bilan 1902-yili nashrdan chiqardi. Ushbu nashrga so‘z boshi sifatida yozilgan kichik maqola “Mir Alisher Navoiy” deb nomlangan va unda buyuk shoir haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan: “Bu daf’a bir cho‘q asarlarindan biri o‘lan “Mukolamatu-l-lug‘atayn” risolasini nashr etdigimiz Mir Alisher Navoiy turk olamining eng buyuk bir shoiri, eng buyuk bir adibidir. Movarounnahr va Turkiston qit’asinda joriy va mo‘tabar o‘lan chig‘atoy shevasinda qalam chekkanlardan eng buyugi, ulug‘i bir zotdir. Xolis turkcha so‘yladigi she’r va g‘azallari bir cho‘q devonlara doxil o‘lub, bu kuna qadar namunai imtisol tutiliyurlar. Shoh Temur xonadonina mansub kibor oiladan, 844 sanai hijriyada Hirot shahrinda dunyoga kelmishdir. Zamonincha g‘oyat mukamal tahsili ulum etdikdan so‘ngra davlat xidmatina kirib voliy va vazir poyalarini bo‘lmishdir. Ma’muriyat ila bo‘ldig‘i shuhrat buyukdir, ammo qalam ila kasb etdigi nom va nishon daha buyukdir. Ma’muriyat ila o‘z zamonina, o‘z makonina xidmat etmish esa, qalami ila zamonlara, makonlara xudam o‘lmish bir nodiri vujuddir. Forsiy va turkiy dillarini tamoman bilib, har ikki dilda ibrozi kamolot etdigindan “ikki dilli” (zu-l-lisonayn) laqabi foxirasini olmish edi. Ismoil Gasprinskiy Alisher Navoiy haqida bergan xabarlari qisqa biografik ma'lumotlardan iborat bo‘lib, asosan gazeta o‘quvchilarini buyuk shoir bilan yana-da yaqinroq tanishtirishga mo‘ljallangan. Bundan tashqari Gasprinskiy Alisher Navoiy qalamiga mansub “Arba’iyn” asarini “Qirq hadis” nomida nashr etib, “Tarjimon” gazetasi o‘quvchilariga bepul hadya qildi. Ushbu asar kichik formatda 1907-yili bosmadan chiqdi. Kitobning muqaddimasida noshir quyidagi ma’lumotni ilova qiladi: “Qirq hadis. Mavlaviy Jomiy hazratlarining forsiycha va Mir

Alisher Navoiyning turkiycha tarjimalari ila muharrir va noshiri jaridai “Tarjimon” Ismoilbek G‘asprinskiyning himmati ila shahri Bog‘chasaroyda nashr o‘lindi.” [5, Mir Alisher Navoiy. Mukolamatu-l-lug‘atayn 2-b.] Ismoil Gasprinskiyning buyuk adib va mutafakkir Alisher Navoiy hayoti, shaxsiyati va ijodiga bo‘lgan qiziqishi ayniqsa uning umuadabiy til borasidagi qarashlarida yaqqol ko‘rinadi. Gasprinskiy Navoiy haqida turli ma'lumotlarni gazeta o‘quvchilariga taqdim qilish barobarida adibning asarlaridan o‘z fikrlarini qo‘llab-quvvatlash uchun asosiy manba sifatida foydalandi hamda o‘z izdoshlarini shoirning ijod namunalaridan bahramand qildi. Navoiy o‘z asarlarida turkiy tilning davlat va ilm-fan tiliga aylanishi uchun kurashgan bo‘lsa, Gasprinskiy ham “Turkiy tillar birligi” g‘oyasini ilgari surgan. U Navoiy asarlarining xalq orasida keng tarqalishi va tushunarli bo‘lishi uchun sodda til tarafdori bo‘lgan. Gasprinskiy o‘zining ma’rifatchilik faoliyatida Navoiyning asarlaridan manba sifatida foydalangan va ularni turkiy xalqlarning umumiy madaniy merosi sifatida targ‘ib qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mir Alisher Navoiy. Mukolamatu-l-lug‘atayn. Noshiri muharriri “Tarjimon” Ismoil Gasprinskiy. Bog‘chasaroy: Matbaai Tarjimon, 1902.
2. Abdurahon Jomiy, Alisher Navoiy. Qirq hadis. Bog‘chasaroy: “Tarjimon” jaridasining elektrik bosmaxonasi. 1907.
3. Adabiyoti sartiya Tarjimon, 48-son 1900-yil.
4. Mir Alisher Navoiy Maktab (“Tarjimon” gazetasiga ilova), 48-son 1898 yil
5. Chig‘atoy dili Tarjimon, 10-son 1911-yil.